

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimatov	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
B.S.Sobirov	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achildiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik.....	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish	544



UO'K:7.01:781.7

**MILLIY MUSIQAMIZGA DOIR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING ASARLARI
TAHLILI****АНАЛИЗ ТРУДОВ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ О НАШЕЙ
НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКЕ****ANALYSIS OF THE WORKS OF CENTRAL ASIAN THINKERS ABOUT OUR NATIONAL
MUSIC****Orziboyev Rustam Abdimutalibovich** 
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Sharofiddin Ali Yazdiy, Abulqodir Marog'iy, Kavkabi Najmiddin Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Darvesh Ali Changiylarning musiqa madaniyatiga doir asarlari tahlil qilinadi.

Аннотация

В данной статье анализируются труды Центральноазиатских мыслителей Абу Насра Фараби, Абдурахмана Джами, Алишера Навои, Захриддина Мухаммада Бабура, Шарафуддина Али Язди, Абулкадира Марогии, Кавкаби Нджмиддина Бухари, Абу Али Ибн Сины, Дарवेशа Али Чанги.

Abstract

This article analyzes the works of Central Asian thinkers Abu Nasr Farabi, Abdurrahman Jami, Alisher Navoi, Zahriddin Muhammad Babur, Sharafuddin Ali Yazdi, Abulqadir Maroghi, Kavkabi Najmiddin Bukhari, Abu Ali Ibn Sina, Darvesh Ali Changi.

Kalit so'zlar: "Kitob ul-musiqiy al-Kabir", "Qalam fi-l-musiqiy", "Kitob fi-ixso-al-ulum va ta'rif", "Majolisun nafa'is", "Mezon-ul-afson", "Mahbub-ul-qulub", "Xamsa", "Zubdatul advor", "Maqosidul ilhon", "Miatayin", "Risolai musiqiy", "Risolai musiqiy", "Javome' ilm ul-musiqiy", "Kitabush-shifa".

Ключевые слова: «Китаб уль-муסיки аль-Кабир», «Калам фи-л-муסיки», «Китаб фи-ихса-уль-улюм ва тар'иф», «Маджолисун нафаис», «Мезан-уль-афсан», «Махбуб-ул-кулуб», «Хамса», «Зубдатул адвор», «Мақасидул илхан», «Миатайин» и «Рисалай музика». «Розалай мюзикл». «Джаваме' илм уль-муסיки».

Key words: "Kitob ul-musiqi al-Kabir", "Kalam fi-l-musiqi", "Kitob fi-ikhsa-al-ulum va ta'rif", "Majolisun nafa'is", "Mezan-ul-afsan", "Mahbub -ul-qulub", "Khamse", "Zubdatul advor", "Maqasidul ilhan", "Miatayin" and "Risalai muziky". "Rosalai musical". "Javame' ilm ul-musiqi", "Kitabush-shifa".

KIRISH

Milliy musiqa madaniyatining rivojlanish jarayoni asosan Markaziy Osiyo Uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib Markaziy Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abulqodir Marog'iylarning musiqa madaniyatiga doir asarlari dunyo yuzini ko'ra boshladi, mutafakkirlarning asarlari orqali olib borilgan nazariy hamda amaliy izlanishlar orqali, asrlar davomida meros bo'lib kelmoqda, shuningdek ayni kunga qadar musiqa madaniyatining zamonaviy ko'rinishida yaralishi bilan ham zamin bo'lib kelmoqda. Mazkur mutafakkirlarning asarlari o'zining rang-barang janrlari bilan kishilar hayotining ajralmas bir bo'lagiga aylandi va avloddan-avlodga o'tib, bizgacha yetib keldi. Zero, "...inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir".

Ilm-fanning rivojlanishiga o'zining bebaho hissasini qo'shgan buyuk mutafakkirlardan biri Aristotel (eramizdan avvalgi 338-322) musiqaning insonga ta'siri va uning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida ahamiyat beradi. Uning fikricha, musiqa san'ati insonning ma'naviy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi. Haqiqatdan ham musiqa san'ati har qanday kishilik jamiyatida tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Markaziy Osiyo xalqlarining musiqa san'ati tarixini yoritishda Sharq musiqa ilmining asoschisi sifatida tan olingan Abu Nasr Forobiy va Ibn Xaldun alohida o'rni borligini e'tirof etish lozim. Forobiy musiqa san'ati tarixini inson nutqining shakllanish jarayoni va hissiyotlari bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlagan bo'lsa, Ibn Xaldun (14-asr) ijtimoiy tizimlarning shakllanish qonuniyatlariga asoslangan holda tushuntirgan. Yirik mutafakkir, qomusiy olim, buyuk faylasuf, musiqashunoslik fanining asoschisi Abu Nasr Forobiy (870-950) o'z faoliyatida musiqa ilmini tadqiq etish bilan birga qonun, g'ijjak kabi yangi musiqiy sozlarni kashf etdi. Uning "Kitob ul musiqi al-kabir" (Katta musiqa kitobi), "Kalom fi-l musiqi" (Musiqqa haqida so'z), "Kitob fi-hso-al-ibqo" (Kuylar tasnifi haqida kitob), "Kitob fi-n naqra muzofa ila-l ibqo" ("Ritmga qo'shimcha qilinadigan siljishlar haqida kitob"), "Ixso al-ulum" (Ilmlarning kelib chiqishi) kabi asarlari musiqa madaniyatini asoslariga oid bo'lib, bugungi kunda ham musiqa ilmini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Abu Nasr Forobiy musiqa haqidagi ilmiy asarlarida cholg'uda ijro etilayotgan musiqa ashulaga jo'r bo'ladi yoki ovozga taqlid qiladi, uni boyitadi hamda ashulaning boshlang'ich musiqa qismini va uning oralaridagi cholg'u qismini xosil qiladi. Bu esa ashulachiga dam beradi. Ayni vaqtda ular ashulaning ovozi yetmaydigan joylarini bo'rttirib, vokal musiqani boyitadi, deb yozadi.

Shuningdek, mutafakkir o'z asarlarida tovushlarning xarakteriga ko'ra musiqa asboblari xilma xil rol o'ynaganligini ko'rsatib o'tadi: janglarga mo'ljallangan cholg'u asboblarning ovozlari baland va keskin ekanligi, ziyofat va raqslar uchun, to'y va quvnoq yig'ilishlar uchun, muhabbat qo'shiqlari uchun ham maxsus cholg'u asboblari borligi shular jumlasidandir. Ayrimlarning tovushi keskin va hazin bo'ladi: bir so'z bilan aytganda ular shunchalik ko'p, shunchalik xilma-xilki, hammasini sanab o'tish qiyin deydi. Forobiy musiqa sozlarining tovushqatorlarini ham mukammal o'rganadi. Ayniqsa, Xuroson tanburiga alohida e'tibor beradi. Bu shuni ko'rsatib turibdiki, o'sha davrda mahalliy musiqa sozlarining ahamiyati juda katta bo'lgan va musiqa bilan shug'ullanuvchilarni befarq qoldirmagan. Chunki, o'sha davrda arfa, ud, tipidagi torli hamda puflyab chalinadigan nayga o'xshash sozlar va chang, rud, doira kabi musiqiy cholg'ular keng tarqalgan edi.

Forobiy "Ixso al ulum" (Ilmlarning kelib chiqishi) nomli asarida substansiyaning kelib chiquvchi belgilari asosida ilmlar vujudga kelishi tartibini tekshirar ekan, musiqani sonlar to'g'risidagi ilm, o'lchovlar haqidagi ilm va yulduzlar haqidagi imdan so'ng to'rtinchi o'ringa qo'yadi.

NATIJALAR

Hammamizga ma'lumki, Amir Temur davrida madaniyat va san'at yuksak darajada rivojlangan. Uning Shom shahridan Abdulqodir Marog'iy olib kelganligi va uni saroy musiqachilarining rahbari etib tayinlaganligidan bilish mumkin, Amir Temur ham musiqa san'atiga e'tiborli bo'lgan.

Abdulqodir Marog'iy asli isfaxonlik bo'lib, o'z davrining musiqiy olimi, bastakor va nazariyotchi bo'lgan. U Samarqandga kelgach, o'zining maktabini yaratadi, ko'plab shogirdlar tayyorlaydi va Markaziy Osiyo musiqa san'ati va madaniyatining rivojlanishiga o'zining munosib hissasi qo'shadi. Musiqashunos – tarixchi Darvesh Ali Changiyning "Risolai musiqiy" asaridagi ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, Abdulqodir Marog'iyning "Zubdatul advor", "Maqosidul ilhon", "Miatayin" nomli asarlari o'z davrida musiqa madaniyati va san'atining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, Abdulqodir Marog'iy o'zining madhiya xarakteridagi "Miatayin" nomli musiqiy risolasida tarje', peshrav, va boshqa bir qator bizgacha yetib kelgan musiqa janrlarini eslatib o'tadi.

Bizga qadar yetib kelgan qo'lyozmalar XIV-XV asr musiqa san'ati va madaniyati tarixi xususida boy ma'lumotga ega bo'lib, bu davr haqida to'laqonli taassurot hosil qilish imkonini beradi. Shunga ko'ra, bu davrning o'ziga xosligi unda jo'shqin harakatchanlik yetakchilik qilganligidir, deyish mumkin.

O'zbek musiqa madaniyati rivojlanishida buyuk shoir Abdurahmon Jomiyning alohida o'rni borligini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, uning "Risolai musiqiy" nomli asarida o'zbek xalqining qadimiy o'n ikki maqomi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Ayni vaqtda Abdurahmon Jomiy zo'r sozanda va bastakor ham bo'lgan. Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida ta'kidlab o'tganidek, Abdurahmon Jomiy o'z zamonasida mashhur bo'lgan "Naqshi Mullo" nomli asar muallifidir.

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyo madaniyati, o'rta asr adabiyoti va musiqa san'atining eng yuksalgan davri ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq. Ulug' mutafakkir

PEDAGOGIKA

Alisher Navoiy o'zining "Sabbai sayyor", "Majolisun nafois", "Mezon-ul-afson", "Mahbub-ul-qulub", "Xamsa" nomli asarlarida o'zining musiqiy-estetik qarashlarini bayon qilib, musiqa sohasida katta ilmga ega ekanligini namoyon qilgan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodini o'rganayotgan tadqiqotchilar bu ulug' zotni she'riyatdan keyin musiqa va ilmi musiqiyda tengsiz bir siymo bo'lgan, deb ta'kidlaydilar. Ba'zi musiqashunoslar, jumladan, Zaynulobidin Husayniy ishora bilan ul zotning taxalluslari Navoiy (Navo – bulbulning gul (yori)ga navo chekishi) bo'lishligi ham musiqaga yaqinliklaridan, deb yozadi.

Alisher Navoiy musiqiy olim sifatida o'zining "Mahbubul-qulub" asarida mutrib(ashulachi), mug'anniy(sozanda)lar ijro uslublarining ta'sirchanligi va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini juda chiroyli tarzda tahlil qiladi. Shu bilan birga nay, g'ijjak, tanbur, chang, ud, rubob, qo'biz, qonun kabi musiqa cholg'ularining fazilatlarini ta'riflab beradi. "Navoiy tuyuq changi, turkiy orzivoriy, muhabbatnoma, mustahzod kabi xalq qo'shiqlarining sakkiz turi, ularning vazn xususiyatlari haqida ma'lumotlar beradi".

MUHOKAMA

Buyuk shoirmusiqani hamda uning ijtimoiy ta'sirini yaxshi tushungan. Uning fikricha, yaxshi musiqa xalq va uning hayotini izga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy o'zining qahramonlari bo'lgan Farxod va Shirin, Layli va Majnunlarning ruhiy holatini tasvirlar ekan, asardagi ishq va go'zallikni musiqa sadosi va qushlar qo'shig'i bilan qiyoslaydi. Navoiy, o'z ijodi haqida so'zlab, o'zini "yangroq", ya'ni musiqiy g'azallarida ma'no va hayajon, qayg'u va hasratlarni bayon qiluvchi kuychi deb ataydi:

E, Navoiy ishq agar ko'nglungni majruh etmadi,
Bas nedurkim qon kelur og'zingdin afgoraylagach .

Navoiyning ushbu so'zidan ko'rinib turibdiki, u yoqimli kuy va xushovoz xonandani yoqlamoqda. Demak, faqat samimiyat, yuksak nafosat bilan yaratilgan kuygina kishi ruhining ozig'i bo'la oladi. Navoiy hamisha hayotiy san'at tarafdori bo'lgan va anashu san'at vakillarini qo'llab-quvvatlagan. U fikrini bayon qilib, qo'shiq xalqqa xizmat qilishi kerak,- deydi. Navoiy musiqa va uning hayotdagi zaruriyati va mohiyatini tushintirish bilan cheklanib qolmasdan, adabiy asarlarni keng ommaga tushinarli qilib yetkazishni talab qilganidek, musiqaga ham puxta sermazmun asarlar yaratish tarafdori bo'lgan.

O'zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyondalaridan Zahriddin Muhammad Bobur (1483-1530)Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, jo'g'rofiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan "Boburnoma" asarini bizga ulkan ma'naviy meros qilib qoldirgan. O'z davrda adabiyot bilan musiqaning hamkorligi tufayli shoirlar yozgan g'azallar sozanda va xonandalar tomonidan kuylanib, tezda xalqning orasiga tarqalishi, Boburning ham xalq orasida ham shoh, ham shoir sifatida tanitdi. Tarixdan ma'lumki, davrning eng mohir sozanda va xonandalari avvalambor, o'z sanatlarini shoh saroylarida namoyish qilganlar. Shuning uchun ham Bobur hayoti davomida juda ko'plab mohir sozanda va xonandalarning sanatlardan bahramand bo'lgan va o'z asari "Boburnoma"da ularning ko'plab nomlarini yozib qoldirgan. Najmiddin Kavkabi 1532-yilda azim Buxoroda tavallud topgan.

"Buyuk shoir, olim, musiqashunos hamda bastakor XVI asrda yashab ijod qilgan. O'rta Osiyo musiqa madaniyatiga o'z hissasini qo'shib, 12 maqomli she'riy matn va musiqani tartibga solgan"

Kavkabi o'z davrining yetuk musiqa olimlaridan xisoblanib, musiqa ilmidagi ko'plab asarlar yaratgan. Manbalarda yozilishicha Najmiddin Kavkabi Xipotda ta'lim olgan.

Kavkabiylarning risolayi musiqiy asarida 12 maqomning nazariyasi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek xar xil zarblar haqida ham ma'lumot berib, ularga izox qoldirgan.

"Ibn Sino musiqa bobida Forobiylarning ilmiy yo'nalishini davom ettirgan yirik nazariyotchidir. Musiqa haqidagi "Javome' ilm ul-musiqiy" ("Musiqa ilmiga oid tuplam") asari "Kitob ash-shifo" ning bir qismi bo'lib, har biri bir necha bobli 6 bo'limdan iborat. "annajot", "Donishnoma"larda musiqa haqida kichik bo'limlar mavjud, "Tib qonunlari", "Risolai ishq" va b. da musiqaning ayrim masalalari haqida fikr yuritgan."

"Ibn Sinoning bosh asarlaridan biri - "Kitobush-shifa" falsafiy xarakterda bo'lib, unda muallifning tabiiy – ilmiy qarashlari aks ettiriladi."⁹

XVI asr buyuk olimi Darvesh Ali Changiy musiqashunos va shoirlik bobida yirik ilmiy ishlarni amalga oshirishda salmoqli ishlarni olib bordi.

"1572-yildan boshlab Changiy "Risolayi musiqiy" asari ustida ishlaydi. Asarni tugatib, o'sha davrda hukmron bo'lgan Abdullaxon Shayboniyga tuhfa qiladi. Changiy "Risolayi Musiqiy" asarini ikki holatda yaratadi. Asarning bir qismi hiloya shaklida yozilgan bo'lib, qolgan qismi musiqiy nazariy tushuntirish shaklida keltirilgan. Asarning ikkinchi qismida qadim yunon olimlarining fikrlari, Farobiy, Ibn Sino, Dehlaviy musiqiy-estetik qarashlariga murojaat qilgan holda yaratilgan. Risola 12(maqom) qismdan iborat bo'lib, Changiy har bir qismiga alohida tushuncha berib borgan.

1-qism –kirish qismi. Musiqa san'atini din nuqtai nazaridan qarab, musiqa yangrashi, qo'shiq ijro etish mumkinligi to'g'risida.

2-qism – Musiqa (alxon) va usul (iqo) ning paydo bo'lishi.

3-qism – 12 maqom, 24 qism va tovush rang barangligi to'g'risida.

4-qism – usulning 41 hili

5-qism – Musiqa asboblari va ijro uslubi.

6-qism – Tanbur, chang, nay, ud, qobuz, arg'unun, setor, simtur va xonandalar to'g'risida.

7-qism – musiqa san'atiga ko'p e'tibor bergan shoxlar to'g'risida.

8-qism – Olimlar, musiqashunoslar va musiqa bilimdonlari to'g'risida.

9-qism – Musiqa sohasida o'zining asarlarini meros qilib qoldirgan iste'dodli va mashxur shoirlar, musiqchilar to'g'risida.

10-qism Hirot shahrida yashab ijod qilgan musiqa o'qituvchilari to'g'risida.

11-qism – Xon saroyida yashab ijod qilgan xonandalar to'g'risida.

12-qism – O'sha davrda xalq va saroyda mashxur bo'lgan musiqa o'qituvchilari to'g'risida.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki mutafakkirlarimizning asarlarida jamiyatning hayotiga manfaat beradigan, uning zamiridagi ulkan bunyodkorlik, barkamol avlod tarbiyasi kabi ulug' maqsadlarini yoritish, ularning asarlarini targ'ib qilishga qaratilgan ishlanmalarni keng aholi ommasiga yetkazish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston. NMIU. 2017. –B. 30.
2. Qambarov A.A., Mannopov S., Najmetdinova M.M. O'zbek san'ati tarixi. –Farg'ona: Farg'ona nashriyoti. 2021. –B. 61.
3. Xayrullayev M.M. Forobiy va uning falsafiy risolalari. –T.: O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti 1963. –B. 179.
4. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. –T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fan nashriyoti. 1993. –B. 41.
5. Mannopov S. O'zbek xalq musiqasi madaniyati. – T.: Yangi asr avlodi. 2004. B-26.
6. O'zbek musiqasi tarixi. Tuzuvchi M.Solomonova. – T.: O'qituvchi. 1981. B- 14.
7. N.Yuldasheva, N.Raxmatova. O'zbek musiqasi adabiyoti –T.: Iqtisod-Moliya. 2017.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi I xarfi kitobi.
9. I.Rajabov Maqomlar –T.: SAN'AT nashriyoti. 2006.
10. D.Islomov. Sharq musiqasi tarixidan. – T.: Toshkent nashriyoti, 2017.